


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLEGI**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**



**Ro'yxatga olindi:**

**Nº      Bakalavriat**

**OXI -60911200 - 1.15**

**FARMAKOLOGIYA  
O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi**

900 000 – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot

**Ta'lif sohasi:**

910 000 – Sog'liqni saqlash

**Ta'lif yo'nalishlari:**

60911200 – Oliy hamshiralik ishi

**Toshkent -2024**

<b>Fan/Modul kodi</b> FR1303	<b>O‘quv yili</b> 2024/2025	<b>Semestr</b> 3	<b>ECTS-Kreditlar</b> 3	
<b>Fan/Modul turi</b> Majburiy	<b>Ta’lim tili</b> O‘zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 3	
<b>1.</b>	<b>Fan/Modul nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlar (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	Farmakologiya	45	45	90
<b>2.</b>	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o‘qitishdan maqsad</b> – talabalarga dori vositalarining guruhlarini, ularning ta’sir mexanizmlarini, yoshga qarab terapevtik miqdorlarini tanlashni, dori shakllariga retseptlar yozishni, kiritish yo’llarini, kasallikkarda qo’llanilishiga doir ko‘rsatmalarini, nojoya ta’sirlarini va qo’llash mumkin bo‘lmagan holatlarni o‘rgatishdan iboratdir.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – turli kasallikkarni davolash va oldini olishda ishlatalidigan dori vositalari to‘g‘risida bilim, ko‘nikma va malakalarni berish; modulning umumiy retseptura bo‘limida dori moddalarning shakllari, tayyorlanishi, retsept yozishning qonun-qoidalarini o‘rgatish, umumiy farmakologiya bo‘limida dori moddalarning farmakokinetika va farmakodinamikasini tahlil qilish, xususiy farmakologiya bo‘limida nerv tizimiga, ijrochi a’zolarga, metabolizmga ta’sir etuvchi, mikroorganizmlarga va o‘smalargacha qarshi bo‘lgan moddalar farmakologiyasiga oid ko‘nikmalarni shakllantirish. Dori vositalar bilan zaharlanishlarda tibbiy yordam choralarini qo’llay bilish, amaliyotda ulardan foydalana olishni, bolalarda va keksalarda dori moddalarning farmakokinetikasi va farmakodinamikasining turli omillar ta’sirida o‘zgarishini o‘rgatish, O‘zbekistonda farmakologiya fanining rivojlanish tarixi va farmakolog olimlarning erishgan yutuqlari bilan tanishtirishdan iborat.</p>			
	<p><b>II. Asosiy nazariy qism</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Umumiy farmakologiya. Dori moddalarning farmakokinetikasi va farmakodinamikasi.</b></p> <p>Farmakologiya faniga kirish, uning tarixi. O‘zbekistonda farmakologiya fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo’shgan farmakologlar. Yangi dori vositalarni yaratishning asoslari. Dori moddalarning farmakokinetik parametrlari: kiritish, taqsimlanish, parchalanish va chiqarish yo’llari. Dori moddalarning farmakodinamikasi. Dori moddalar ta’sir qilishining asosiy turlari. Dori moddalarning farmakokinetikasi va farmakodinamikasiga ta’sir etuvchi omillar. Dozalarning turlari, terapevtik ta’sir kengligi. Moddalar</p>			

ta'siriga jins, yosh va genetik omillarning ta'siri. Farmakologik ta'sir samaradorligining organizmning patologik holatiga bog'likligi. Dori moddalarining ta'sir turlari. Dori moddalari organizmga qayta kiritilganda ta'sirining o'zgarishi. Dori moddalarning aralash ta'siri. Dori moddalar birgalikda kiritilganda kuzatiladigan o'zgarishlar.

### **2-mavzu. Og'riq qoldiruvchi vositalar.**

Markaziy ta'sirli og'riq qoldiruvchi vositalar (narkotik analgetiklar). Opioid retseptorlar agonistlari. Opioid retseptorlarning agonist-antagonistlari. Markaziy ta'sir etuvchi noopioiog og'riq qoldiruvchi vositalar. Turli guruhga mansub og'riq qoldiruvchi vositalar. Aralash ta'sir mexanizmiga (opioid + noopioiog) ega og'riq qoldiruvchi vositalar. Morfin bilan o'tkir va surunkali zaharlanishda ishlatiladigan dori vositalari hamda bajariladigan chora-tadbirlar. Ularning tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, qo'llashga qarshi ko'rsatmalar, tibbiyotdagi ahamiyati.

### **3-mavzu. Nafas tizimi faoliyatiga ta'sir etuvchi vositalar.**

Nafas stimulyatorlari. Yo'talga qarshi vositalar. Balg'am ko'chiruvchi vositalar. Bronxolitik vositalar. O'tkir nafas yetishmovchiligin davolashda qo'llaniladigan vositalar. Surfaktant hosil bo'lishini oshiruvchi vositalar. Ularning tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, tibbiyotdagi ahamiyati.

### **4-mavzu. Gipotenziv va gipertenziv vositalar.**

Gipotenziv va gipertenziv vositalar. Ularning tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, tibbiyotdagi ahamiyati.

### **5-mavzu. Me'da-ichak va jigar faoliyatiga ta'sir etuvchi vositalar.**

Me'da bezi faoliyati buzilganda qo'llaniladigan vositalar. Antatsid vositalar. Gastroprotektorlar. Qustiruvchi va qusishga qarshi vositalar. Gepatoprotektorlar: xolekinetik va xoleretik vositalar. Ichak peristaltikasiga ta'sir etuvchi vositalar. Surgi vositalar. Ularning tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, tibbiyotdagi ahamiyati.

## **III. Amaliy (laboratoriya) mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quydagi mavzular tavsiya etiladi:

**1-mavzu.** Retsept va uning tuzilishi. Dori shakllari va ularga retsept yozish qoidalari.

**2-mavzu.** Umumiy farmakologiya. Dori moddalarning farmakokinetikasi va farmakodinamikasi.

**2-mavzu.** Afferent nerv tizimiga ta'sir etuvchi vositalar.

**3-mavzu.** Xolinoretseptorlarga ta'sir etuvchi vositalar.

- 4-mavzu.** Adrenoretseptorlar ta'sir etuvchi vositalar.
- 5-mavzu.** Narkoz vositalari. Uxlatuvchi vositalar.
- 6-mavzu.** Neyroleptiklar. Anksiolitiklar.
- 7-mavzu.** Psixostimulyatorlar. Depressiyaga qarshi vositalar. Nootrop vositalar.
- 8-mavzu.** Analgetiklar.
- 9-mavzu.** Nafas a'zolari faoliyatiga ta'sir etuvchi vositalar.
- 10-mavzu.** Kardiotoniklar. Antianginal vositalar.
- 11-mavzu.** Gipotenziv vositalar. Gipertenziv vositalar.
- 12-mavzu.** Hazm a'zolari tizimiga ta'sir etuvchi vositalar.
- 13-mavzu.** Yallig'lanishga qarshi vositalar. Allergiyaga qarshi vositalar.
- 14-mavzu.** Antiseptik va dezinfeksiyalovchi vositalar. Antibiotiklar
- 15-mavzu.** Silga, zaxmga, va viruslarga qarshi vositalar.

#### **Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha umumiyo ko'rsatma va tavsiyalar:**

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

#### **IV. Amaliy ko'nikmalar:**

1. Modul davomida talabalar farmakologiyaning asosiy qonuniyatlarini o'zlashtiradi, turli kasallikkarda dori vositalarini tayinlash.
2. Tegishli dozalarni hisoblash va ularga retsept yozish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Dori vositalarining farmakokinetikasi va farmakodinamikasi, qo'llash uchun ko'rsatmalar,
3. Nojo'ya ta'sirlari, dori vositalarining o'zaro ta'sirlari, a'zolar (jigar va buyrakning biokimiyoviy ko'rsatkichlari) faoliyatiga bog'liq holda dori vositalarini qo'llashning ehtiyyot choralarini, qo'llashga qarshi ko'rsatmalar.
4. Dori vositalaridan o'tkir va surunkali zaharlanishlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillarini o'rganadilar.

#### **V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

1. O'zR Prezidentining retsepturaga asoslangan qonun va farmoyishlari.

	<p>2. Dori vositalarini nazorat qilishda foydalaniladigan me'yoriy hujjatlar.</p> <p>3. Dori vositalarining Davlat reestri.</p> <p>4. Zamonaviy anestetik vositalar.</p> <p>5. Tropikamid dori vositasining farmakologiyasi.</p> <p>6. Nikotinizm va uning asoratlari. Nikotinizmning o'smirlar va ayollar organizmiga ta'siri.</p> <p>7. Anafilaktik shok va uni davolash. Analeptiklar.</p> <p>8. Alkogolizm va uning asoratlari. Alkogolizmning homilaga ta'siri.</p> <p>9. Biologik faol qo'shimchalar va dori vositalarining qiyosiy tahlili.</p> <p>10. Litiy tuzlari. ofamin va dofaminergik vositalar. Serotonin va serotoninergik vositalar.</p> <p>11. Narkomaniya va uning asoratlari.</p> <p>12. Fitopreparatlar va ularning qo'llanilishi.</p> <p>13. Parkinson kasalligini davolashda ishlataladigan dori vositalar.</p> <p>14. Antiaritmik vositalar</p> <p>15. Sulfanilamid preparatlari. Turli kimyoviy tuzilishga ega sintetik antibakterial vositalar.</p> <p>16. Etil spirti. Sedativ vositalar</p>
--	---

3.	<p><b>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• dori vositalarining tasnif guruhlari,</li> <li>• guruhlarga kiradigan dori vositalarining nomlari,</li> <li>• ta'sir mexanizmi, ta'sir turlari,</li> <li>• yoshga nisbatan alohida ko'rsatmalari, dori vositalaridan zaharlanganda ko'rsatiladigan yordam chora-tadbirlari va usullari to'g'risida <b><i>haqida tasavvurga ega bo'lishi;</i></b>(bilim)</li> <li>• umumi retsepturaning asosiy qonun-qoidalarini,</li> <li>• har xil shakldagi (suyuq, yumshoq, qattiq va ingalyatsion) dori shakllariga retsept yoza olish</li> <li>• dori moddalarning farmakokinetikasi va farmakodinamikasi asoslarini,</li> <li>• dori vositalarining qo'llashga oid ko'rsatmalari,</li> <li>• nojo'ya ta'sirlari va qo'llashga qarshi ko'rsatmalarini,</li> <li>• dori vositalarining yangi analoglarini,</li> <li>• dori vositalar bilan o'tkir zaharlanish belgilari,</li> <li>• dori vositalarini tasniflash,</li> <li>• periferik nerv sistemasiga ta'sir etuvchi dori vositalarining o'ziga xos xususiyatlari, tasnifi, qo'llash uchun ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar, ularga retsept yozish qoidalarini bilish,</li> <li>• markaziy nerv sistemasiga ta'sir etuvchi dori vositalarining o'ziga xos</li> </ul>
----	--

	<p>xususiyatlari, tasnifi, qo‘llash uchun ko‘rsatmalar va qarshi ko‘rsatmalar, ularga retsept yozish qoidalarini bilish,</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>farmakoterapevtik guruh preparatlarini qiyosiy baholash hamda nojo‘ya ta’sirlarining oldini olish tadbirlarini <b><i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma)</i></b></li> <li>dori moddalarning faolligini,</li> <li>ularning farmakologik xususiyatlari,</li> <li>ta’sir mexanizmini hisobga olgan holda tahlil qila olishi,</li> <li>dori vositalarning guruuhlarini to‘g‘ri aniqlash,</li> <li>dori vositalarini bemorning yoshiga qarab dozalash,</li> <li>dori vositalarini kiritish yo‘llarini aniqlash,</li> <li>vaziyatli masalalarda dori vositalarni to‘g‘ri tanlash va terapevtik ta’sirini aniqlay bilish,</li> <li>retsept yozishning qonun-qoidalarini o‘zlashtirish,</li> <li>har xil dori vositalarining turli shakllariga retsept yoza bilish va ularni tayyorlash kabi <b><i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. (malaka)</i></b></li> </ul>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Interfaol o‘yinlar;</li> <li>Seminar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar;</li> <li>Guruhlarda ishslash;</li> <li>Taqdimotlarni kiritish;</li> <li>Individual loyixalar;</li> <li>Jamoa bo‘lib ishslash va himoya qilish uchun loyihamlar.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha yozma yoki og‘zaki va test ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Allaeva M.J., Xakimov Z.Z., Ismailov S.R., Aminov S.S., Mustanov B.T.. Farmakologiya. Darslik, T., 2020. (elektron).</li> <li>Д.А. Харкевич. Фармакология. Учебник. М.-2017 г.</li> <li>Azizova S.S. Farmakologiya. Darslik, T., 2006 y..</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo‘srimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Харкевич Д.А. Фармакология. Учебник- 2010, Москва «Медицина»— 750 с.</li> <li>Manuchair Ebadi. Pharmacology. Textbook. 3- edition,Boston New York</li> </ol>

- Toronto London, 1996.
3. Видаль. Лекарственные препараты в Узбекистане. Справочник. 2010, М.: АстраФармСервис.
  4. Karen Whalen. Pharmacology. Textbook. 6- edition. «Lippincott illustrated reviews». 2015.
  5. Aliev X.U., M.J.Allaeva. Klinik farmatsiya. Darslik. T., 2011.
  6. Xakimov Z.Z., Mustanov T.B., Payzieva L.A. Antibakterial vositalar. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2016.
  7. Aminov S.D., Ziyaeva Sh.T., Karimova G.A., Mirzaaxmedova K.T., Kaldibaeva A.O. Umumiy retseptura. O‘quv qo‘llanma, “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent.-2015.

**Internet saytlari:**

4. [www.evrofarm.uz](http://www.evrofarm.uz)
5. <http://evbmed.fbm.msu.ru/> Московский центр доказательной медицины
6. <http://www.fda.gov> Администрация по продуктам и лекарствам США (FDA)
7. <http://www.pharmgkb.org/> Ресурс по фармакогенетике.
8. <http://www.tga.health.gov.au/adr/aadr.htm> Австралийский бюллетень нежелательных лекарственных реакций
9. <http://www.mhra.gov.uk/Publications/Safetyguidance/DrugSafetyUpdate/index.htm> Британский ежемесячный бюллетень по безопасности лекарственных средств
10. <http://www.drugreg.ru> Фонд фармацевтической информации
11. <http://www.rlsnet.ru> Российская энциклопедия лекарств (РЛС)
12. <http://nmu-student.narod.ru/farmacology>.

Fan dasturi Ohiy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2023-yil 29-avgustdagи 4-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Fanning o‘quv dasturi Toshkent tibbiyat akademiyasining  
08.05.2024 dagi 03.311-sonli buyrug‘i (buyruqning 1-ilovasi) bilan tasdiqlangan.

O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i



F.X.Azizova

Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya,  
 biotobbiyat va oliy ma’lumotli hamshira  
 fakulteti dekani



S.U.Aliyev

8.	<p><b>Fan/Modul uchun ma'sullar:</b></p> <p><b>M.J.Allaeva</b> - TTA, “Farmakologiya” kafedrasi mudiri, biologiya fanlari doktori</p> <p><b>M.A.Mamadjanova</b> - TTA, “Farmakologiya” kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi</p> <p><b>G‘.Yu.Djanayev</b> - TTA, “Farmakologiya” kafedrasi assistenti, PhD</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>Ichki taqrizchi:</b></p> <p><b>A.X.Raxmonov</b> – TTA, Biotibbiyot tadqiqotlar markazi ilmiy xodim, tibbiyot fanlari doktori.</p> <p><b>Tashqi taqrizchi:</b></p> <p><b>Z.T. Fayziyeva</b> – Toshkent farmatsevtika instituti farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasi professori, tibbiyot fanlari doktori.</p>